

YUSUF HAMADONIY MA'NAVIY MEROSI VA YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Normuhamatov Bekzod O'ktamovich

Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti

Samarqand filiali KI 23-04 guruhi talabasi

Ilmiy rahbari: X. U. Samatov

TATU Samarqand filiali

Annotasiya: Ushbu maqola Yusuf Hamadoniy qadim Turkiston manaviyatida o'ziga xos dunyoqarash, tasavvuf tizimini barpo etgan, rivojlantirgan olim va orif bir zot tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, marifat, tariqat, ijod, murid, maqomat, axloq

Jahon ijtimoiy taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, demokratik o'zgarishlar kuzatilayotgan bir davrda, xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash, jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda Sharq ma'naviy merosi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda buyuk allomalar va davlat arboblarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. «Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz»¹. Ana shunday allomalarimizdan biri Yusuf Hamadoniy ma'naviy merosi haqida gaplashamiz. Xoja Yusuf Xamadoniy hazratlari 440 xijriy (1048 milodiy) yili Hamadon shahrining Buzanjird (yoki Buzinajird) qishlog'ida tavallud topdi. Yusuf Hamadoniy qadim Turkiston ma'naviyatida o'ziga xos dunyoqarash, tasavvuf tizimini barpo etgan, rivojlantirgan olim va orif bir zot edi. U kishi nafaqat xojagon-naqshbandiya tariqatini boshlovchi va takomillashtiruvchi faollardan, balki mohir adib hamdir. Yusuf Hamadoniy Xuroson, Onaduli va Movarounnahrda tasavvuf tajribalarini o'zlashtirib, ularni asarlariga singdirdi, shaxsiy hayotiga tatbiq etib, barchaning hurmatini qozondi. Shayx Yusuf Hamadoniyning nomi nufuzli tasavvuf kitoblarida ehtirom bilan tilga olinadi. Farididdin Attor "Tazkirat ul-avliyo"da Yusuf Hamadoniyning mashhur shayxlar

¹ Газета.uz

<https://www.gazeta.uz/uz/2017/09/20/nutqgmt/>

qatorida eslab, uning Mansur Halloj tarafdorlaridan ekanini ta'kidlaydi². Ammo kubraviya mashoyixidan Majiduddin Bag'dodiy (vaf. m. 1210 y.) o'zining "Tuxfat ul-barara" asarida Yusuf Hamadoniy xazratlarining: «Agar Mansur Halloj ma'rifatni xakki bilan bilganda, “anal-xaq” o'rniga “anat-turob” (men tuproqman) degan bo'lardi» degan so'zlarini naql etadi³.

Keyinroq Abdurahmon Jomiy “Nafoxat ul-uns “ tazkirasida Yusuf Hamadoniy hayoti haqida batafsil ma'lumot bergan⁴. Qolgan mualliflar Jomiyning ma'lumotlarini takrorlash bilan chegaralanadilar, xolos. Muhiddin Arabiy va Najmiddin Roziylar ham Yusuf Hamadoniy shaxsiyatidan bahs yuritishgan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da: "Xoja Yusuf Xamadoniy qaddas Alloxu sirraxul aziz kuniyati Abu Yaqubdur" (imom, olim, orifi rabboniy, go'zal hollari, ko'p ehsonlari, yuksak karomot va maqomotlari bor edi) deb sifatlaydi va uning Bag'dodga borib, Abu Is'hoq Sheroziydan ilm o'rgangani, ilmiy doiralarda qatnashgani, Bag'dod, Isfahon va Samarqand shaharlarida hadis eshitgani va tasavvuf yo'liga kirib, Abu Ali Farmadiyga murid bo'lgani haqida xabar beradi⁵. Yusuf Hamadoniy zohiriy ilmlarni Mavloni Abu Is'hoq Sheroziy kabi ustozlardan o'rgangan bo'lsa, tasavvuf ilmini Abu Ali Farmadiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simmoniy singari oriflardan o'zlashtirgan. Zamonasining yetuk shayxlari Abdulqodir Jiloniy (Gavsul-a'zam), Shayx Xamiduddin Multoniy, xujjat ul-islom Imom Muhammad G'azzoliy bilan suxbat-muloqotlar qilgan. Eron, Turkiya, Bag'dod, Movarounnahr shaharlariga safar qilib, ilmu irfon o'rgangan va o'rgatgan. U ham asrdosh mashoyixlar kabi ilmiy-ma'rifiy yig'inlar, tasavvufiy suhbatlar uyushtirardi. Ammo Yusuf Xamadoniy hampirasi Imom Muhammad G'azzoliydan farqli o'laroq ilmiy-ma'rifiy asarlar yozishdan ko'ra, odamlar orasida yurib, ularni irshod qilish, muridlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish yo'lini tanladi. Odamlar suhbatlari va takyasini istab oshiqardilar. Shu bois, uning xonaqohi “Xuroson Ka'basi” deb sharaflangan.

Eron olimi doktor Muhammad Amin Riyohiyning ta'kidlashicha, Xoja Yusuf Hamadoniy shaxsiyat sifatida Imom Muhammad G'azzoliyga o'xshab ketadi. Ikkalasi ham Abu Ali Farmadiyning muridlari ekani tasodifiy emas. Tasavvufni sodda va bezaksiz so'zlar shaklidan madrasaviy tariqat shaklidagi shariatga muvofiq bir maqomga keltirdilar. G'azzoliy asarlarining ko'pligi bilan shuhrat qozongan bo'lsa,

² Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Texron 1376 x.sh. 568-bet.

³ Hayat nedir (Rutbetul hayat). Ahmed Yesevi'nin hocasi Hosa Yusuf-I Hemedani. Ceviren Necdet Tosun. Istrnbul, Insan yayinlari. 1998.s. 16.

⁴ Abduraxmon Jomiy. Nafoxot ul-uns min hazorat ilkudc. Texron x.sh. 375-377-b

⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n yettinchi tom Nasoyim ul-muxabbat. T.: “Fan”, 2001, 252-b.

Xoja Yusuf Hamadoniy ko'plab muridlari yetishtirgani bilan tasavvufiy jihatdan oldindadir⁶.

Abdulxoliq G'ijduvoniyni ma'lumotiga ko'ra, Yusuf Hamadoniy umri mobaynida ko'p mamlakatlarga safar qilgan. O'ttiz bor goh, piyoda, goh otda Makkai mukarrama, Madinai muazzama ziyoratiga borgan. Qur'oni majidni yod olib, ming martadan ortiq xatm qilgan. Oyatlar tahlili bo'yicha ikki yuzdan ortiq shayx bilan suhbatlashgan. Doimo toat-ibodat qilar, ko'pincha ro'za tutar edi. Sakkiz ming butparast uning da'vati bilan musulmon bo'lgan. Qanchadan-qancha odamlar tavba qilib, uning etagini tutgan, tasavvuf yo'liga kirgan⁷. Shayx Yusuf Hamadoniy shogirdi hazrat Abdulxoliq G'ijduvoniya tarafidan xojagon-Naqshbandiya tariqatiga sakkiz rashhaning kiritilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumki, keyinroq mazkur qoidalarga Bahouddin Naqshband xazratlari esa uchta qo'shib, naqshbandiyaning yaxlit nazariy tizim tamoyilini shakllantiradilar.

Shayx Xamadoniyning Xojai jahon Abdulxoliq G'ijduvoniya va Piri Turkiston Xoja Axmad Yassaviylarni tarbiyalab kamolga yetkazgani, shubhasiz, uning tasavvuf yo'lidagi eng ulug' xizmatlaridan biridir. Shu ma'noda Yusuf Hamadoniy yassaviya va xojagon tariqatining yetuk ma'naviy pirlaridan hisoblanadi. Shuning uchun Abdulxoliq G'ijduvoniya "Maqomoti Xoja Yusuf Xamadoniy"⁸ da ustozini har jihatdan komil va shayxush-shuyux (shayxlar shayxi) deb ta'riflaydi. Ustozining nasabi, shakli shamoyilidan tortib, yashash tarzi, vafoti, muridlari va odamlar bilan munosabati, insoniy fazilatlarini haqida batafsil ma'lumot beradi. "Maqomot"dan ma'lum bo'ladiki, shayx Hamadoniy o'ta pokiza, taqvdor, halol va diyonatli bo'lib, boshqalardan xam shuni talab qilgan. Haqsizlik, munofiqlik, riyokorlik bilan aslo kelisholmagan. Masalan, "Maqomot"da aytiladi: "...Alar (Yusuf Hamadoniy) yolg'onchi, xudbin, poraxo'r, maqtanchoq, kazzoblarni, nohaq qon to'kuvchilarni, zolimlarni nihoyatda yomon ko'rardilar. Haromxo'r, poraxo'r, muttahaq, fosiqlarni, obro' orttirish uchun shariatni niqob qiluvchilarni va boshqa xil munofiqlarni oldilariga chorlab, kechirim so'rashga, tavba qilishga majbur qilardilar. Ular ko'nmasalar, shayximiz dashnom berib, xuzurlaridan quvib solar va ularni o'zlariga dushman bilardilar. Ko'pincha

⁶ Yusuf Xamadoniy. Rutbat ul-xayot. Doktor Muxammad Amin Riyohiy muqaddimasi. Texron 1361 x.sh. 19-b.

⁷ Orif Usmon. Shayx Yusuf Hamadoniy. «Sino» jurnali, 2001, 4-son.

⁸ Abdulxoliq G'ijduvoniyni fors tilida yozgan "Maqomoti Yusuf Hamadoniy" nomli risolasining qo'lyozmasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida № 3001 rakami ostida saklanadi. Ushbu «Maqomot»dan parchalar matbuotda E'lon kilingan (Qarang: Xojai Jaxon-Xoja Abdulxolik G'ijduvoniya. - T.: "Navruz, 1994, 18-22-b.

yovgʻon xoʻrak isteʻmol qilib, suv bilan nonni kam yer edilar. Hech kimni soʻkmas, hech kimga “choʻchqa”, “it”, “gadoy”, “itvachcha”, “laʻnat senga” qabilidagi haqorat soʻzlarni ishlatmas va duoyi bad qilmas edilar...”

Xullas, “Maqomot”ni oʻqir ekansiz, ulugʻ fazilatlar sohibi boʻlgan yetuk bir shayxni tasavvuf qilamiz. Ayni paytda mazkur risola axloqiy gʻoyalarni ilgari surishi bilan ham kitobxonni oʻz-oʻzini taftish qilishga chorlab turadi...

Avxaduddin Kirmoniyning rivoyat qilishicha, Hamadoniy hazratlari hayotining oltmish yilini irshod ishiga bagʻishladi va u zot poydevorini qoʻygan bino vafotidan keyin aslo shikast topmadi. Xalifalaridan toʻrt nafari: Xoja Abdulloh Barrahiy Xorazmiy, Xoja Hasan Andoqiy Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniylar birin-ketin muridlarning tarbiyasi bilan mashgʻul boʻldilar⁹.

Shayx Xamadoniyning “Rutbat ul-hayot” asarini nashrga tayyorlab, muqaddima yozgan doktor Muhammad Amin Riyohiy va shu risolani turkchaga tarjima qilgan doktor Najdat Tusunlarning fikriga koʻra, Shayx Yusuf Hamadoniy quyidagi risolalar muallifidir:

1. «Rutbat ul-hayot»; 2. “Kashf”; 3. «Risola dar odobi tariqat»; 4. «Risola fi annal-kavna musaxxarun lil-inson»; 5. «Risola dar axloq va munojot».

Mazkur risolalardan “Kashf” asari bizgacha yetib kelmagan. Hamadoniy risolalarining hajm jihatidan ham, mazmun jihatidan ham salmoklisi “Rutbat ul-hayot”dir. Qolganlari kichik hajmli asarlardan iborat.

“Rutbat ul-hayot” risolasi inson hayotining farqli darajalari toʻgʻrisida savol-javob tarzida yozilgan. Shayxdan oʻndan ortiq nozik savollar soʻralgan va shayx ularga javob bergan. Muallif bu asarida savollarga javob berishda Qurʻoni karim oyatlari va hadisi sharifdan dalil keltiradi, adabiy tashbexlar, shoirona ifodalar, falsafiy xulosalardan keng foydalanadi. Maxluqot ichida insonning eng ulugʻ xilqat ekanini taʻkidlab, undagi “hayvoniylik” va “insoniylik” sifatlariga, belgi va xususiyatlariga toʻxtaladi. Dastlabki shart sifatida nafsni jilovlashga, u bilan mujohada etishga undaydi. Halol va harom, moddiylik va ruhiyat, dunyo va oxirat, tubanlik va yuksaklik kabi tushunchalarni atroflicha tahlil qilib, sabab va oqibatlariga toʻxtaladi. Inson hayotini uch bosqichga: imon bilan yashash, islom bilan yashash, ehson bilan yashashga ajratib, har bir bosqichning asosi va darajasini koʻrsatib beradi. Ehson bilan yashash eng yuqori martaba ekanini alohida taʻkidlaydi. Shuningdek, zikr va fikr, ruh va badan, sir, qalb va jon atamalari orasidagi farqlar va nozik jihatlar keng sharhlangan. Farqli savollar va rang-barang mavzular bir butun holda oʻquvchining mushohadasi va maʼrifatini oshiradi. Qalbdagi ishqiy kechinmalar, zavqu hollar soʻzga aylanib, kitobxonning his va tuygʻulariga taʻsir etadi.

⁹ Xoja Yusuf Hamadoniy. Rutbat ul-hayot. 12-13-b.

Bir soʻz bilan aytganda, kitob oʻzlikni anglash, axloqni, botinni tuzatish, qalb imkoniyatlariga yoʻl ochish, maʼrifat siridan voqif boʻlib, sayru sulukni kamolga yetkazish kabi masalalardan baxs yuritadi. Insonni haqning suyukli bandalaridan boʻlishga daʼvat etadi...

Yusuf Hamadoniyl fors tilida asar bitgan ilk mutasavviflardandir. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra, "Rutbat ul-hayot" risolasi til, uslub va adabiy-badiiy jihatdan ham oʻziga xos va yuksak saviyada yozilgan. Bu asarni shakl va mazmun jihatidan tadqiq etish va unga munosib baho berish alohida tekshirishni taqozo etadi. Shayx Yusuf Hamadoniyning «Odob tariqat» risolasini fors tilidan, «Inson va koinot haqida risola»sini arab tilidan tarjima qildik. Har ikkala risola tasavvufning muhim masalalariga bagʻishlangan. «Odob tariqat»da suluk yoʻliga kirgan har bir muridning qalb pokligi, nafs tarbiyasi, zikr vazifalari, shayxi bilan munosabati va hokazo mavzular muxtasar va asosli bayon etilgan, «Inson va koinot haqida risola»¹⁰ da muallif insonning mulku borliqqa boʻlgan munosabati, maxluqot orasida tutgan yuksak oʻrni, har bir insonning koinotdagi zaruriy ashyolardan istifoda etishi va unumli foydalanish darajalari hamda yoʻllarini koʻrsatib beradi. Xullas, risolada insonning komillikka intilish yoʻlidagi harakatlari bilan birga, ona tabiatdan oqilona foydalanish, ekologiyani toza va asl holida asrash masalalari ham oʻrin olgan. Yusuf Hamadoniyl 535 xijriy (1141 milodiy) yili Afgʻonistonning Bomiyon shaxrida vafot etib, u yerga dafn etiladi. Uning vasiyatiga koʻra, jasadi muridlari tomonidan hozirgi Turkmanistonning Marv shaxriga koʻchirilib keltiriladi va u yerga koʻmiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1) Hamadoniyl, Xoja Yusuf Rutbat ul-hayot (Xayot mezon) —Toshkent: "O'zbekiston" HMIY, 2019.-136 b.
- 2) Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
- 3) Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
- 4) Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
- 5) Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

¹⁰ Bu risola aslida («Risola fi an-nal-kavna musaxxarun lil-inson» - «Koinotning insonga boʻysundirilganligi haqida risola») deb ataladi.